SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 29 - iyun 161-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari, markaziy ko‘chalarida fuqarolar transport vositalari harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarining oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni “Xavfsizlik va ravon yo‘l tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 2-fevraldagi 10/6-266-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi 172-sonli qarori talablariga asosan, Yangiyer shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini va Yangiyer shahar Ichki ishlar bo’limining 2022 yil 10 martdagi 32/156-222-sonli hamda Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashi deputatining 2022 yil 12 apreldagi 2-06/11-sonli xatlariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Yangiyer shahar Ichki ishlar bo’limining yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, harakat xavfsizligini ta’minlash va tartibga solish maqsadida 2022 yil 07 martdagi 32/156-222-sonli hamda Yangiyer shahar Xalq Kengashi deputatining 2022 yil 10 martdagi 2-06/11-sonli “4P-32 “Yangiyer-Paxtakor” avtomobil yo’lining 1 km va M-34 avtomobili yo’li 141 kmga 3.27,3.28” hamda Paxtakor ko’chasida joylashgan OOO “Sirdaryo ikkiqoramet” tashkilotining oldiga YHQning 3.27 yo’l belgisini o‘rnatilishida amaliy yordam so’rab yozgan xatlari inobatga olinsin.

2. Shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan

tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. “4P-32 “Yangiyer-Paxtakor” avtomobil yo’lining 1 km va M-34 avtomobili yo’li 141 kmga 3.27,3.28” hamda Paxtakor ko’chasida joylashgan OOO “Sirdaryo ikkiqoramet” tashkilotining oldiga YHQning 3.27, Davlatobod MFY Yangi oy va Talabalar ko’chalariga (to’xtash va to'xtab turish taqiqilangan) yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

4. Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Xuoybergenov) va Xovos tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (Sh.Sherqulov)ga shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar hokimligi matbuot kotibi (A.Abdullayev) mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzayev hamda shahar IIB boshlig‘i B.Xuoybergenov zimmalariga yuklatilsin.

Yangiyer shahar hokimi **I.Xo'jayev**

Yangiyer shahar hokimining
2022 yil 29 iyundagi
161-9-132-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yangiyer shahar hokimining
2022 yil 29 iyundagi
161-9-132-Q/22-son qaroriga
2-ilova